



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil
yanvar-sentabr



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **1 970,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **22,1** ming kishiga yoki **1,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **964,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,9 %**), qishloq aholisi soni **1 006,1** ming kishi (**51,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 970,6ming
kishi

Tabiiy o'sish

+23,7ming
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar

**48,9 %**

Qishloq

**51,1 %**

Aholining tabiiy harakati


	kishি		<i>o'sish, kamayish (+,-)</i>	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2021 y.	2022 y.		2021y.	2022y.
Tug'ilganlar	28 917	30 863	1 946	20,0	21,1
O'lganlar	6 597	7 168	571	4,6	4,9
Tabiiy o'sish	22 320	23 695	1 375	15,4	16,2
Nikohlar	11 256	10 895	-361	7,8	7,4
Ajralishlar	1 090	1 554	464	0,8	1,1

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2022- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2022- yil 1- oktabr holatiga



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,8** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,2** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,0** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **97,9 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **30,4 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **92,6 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **34,9 ming kishini** tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga



2022-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,5** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,4** yoshga, ayollar uchun esa **75,6** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,9** yoshni, qishloq joylar uchun **72,9** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2022- yil 1- oktabr holatiga



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni
(1oktabr holatiga ming kishi)

	2021- yil.	2022- yil.	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 939,5	1 970,6	101,6
Nukus sh.	327,4	333,4	101,8
tumanlar:			
Amudaryo	203,7	207,5	101,9
Beruniy	196,4	200,1	101,9
Bo'zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao'zak	53,4	54,0	101,1
Kegeyli	73,4	74,0	100,8
Qo'ng'irot	132,2	134,1	101,4
Qonliko'l	52,1	52,9	101,5
Mo'ynoq	32,8	33,4	101,8
Nukus	51,6	52,6	101,9
Taxiatosh	75,2	76,1	101,2
Taxtako'pir	40,5	40,8	100,7
To'rtko'l	220,0	223,8	101,7
Xo'jayli	124,9	126,9	101,6
Chimboy	113,6	114,8	101,1
Shumanay	56,8	57,4	101,1
Ellikqal'a	163,7	166,9	102,0




Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi zichligi
1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi

	aholi zichligi (01.10.2021)	aholi zichligi (01.10.2022)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,6	11,8
Nukus sh.	1481,7	1508,9
tumanlar:		
Amudaryo	199,5	203,2
Beruniy	49,7	50,6
Bo'zatov	10,7	10,7
Qorao'zak	9,1	9,2
Kegeyli	79,8	80,4
Qo'ng'irot	1,7	1,8
Qonliko'l	70,0	71,1
Mo'ynoq	0,9	0,9
Nukus	54,7	55,7
Taxiatosh	423,4	428,4
Taxtako'pir	1,9	1,9
To'rtko'l	29,4	29,9
Xo'jayli	226,7	230,3
Chimboy	78,9	79,7
Shumanay	72,6	73,4
Ellikqal'a	30,2	30,8

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **11,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **11,6** kishi).

Tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahrida **1508,9** kishi, Taxiatosh tumanida 428,4 kishi, Xo'jayli tumanida 230,3 kishi, Amudaryo tumanida 203,2 kishi, Kegeyli tumanida 80,4 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qo'ng'irot tumanida 1,8 kishi, Mo'ynoq tumanida 0,9 kishi, Taxtako'pir tumanida 1,9 kishi, Qorao'zak tumanida 9,2 kishi, To'rtko'l tumanida 29,9 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti 2022-yil yanvar-sentabr, kishi

	Tug'ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30 863	21,1
Nukus sh.	5 083	20,5
tumanlar:		
Amudaryo	3 726	24,2
Beruniy	3 610	24,3
Bo'zatov	250	15,3
Qorao'zak	680	16,9
Kegeyli	1 011	18,3
Qo'ng'iroq	2 023	20,3
Qonliko'l	755	19,2
Mo'ynoq	480	19,3
Nukus	901	23,1
Taxiatosh	963	17,0
Taxtako'pir	500	16,4
To'rtko'l	3 642	21,9
Xo'jayli	1 995	21,1
Chimboy	1 667	19,5
Shumanay	705	16,5
Ellikqal'a	2 872	23,2


2022-yil yanvar-sentabr oylarida **30,9** mingta kishi tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,1** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan **1,1** promillega oshganligi kuzatildi (2021-yilda **20,0** promilleni tashkil etgan).

Tug'ilganlarning taqsimlanishi


Yanvar- mart



Yanvar- iyun



Yanvar- sentabr



Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,7%**
- 2 nafar – **2,2%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

7,1 %	40 yosh va undan kattalar
80,2 %	25-39 yoshdagilar
12,7 %	25 yoshgacha


Onaning yoshi

1,8 %	40 yosh va undan kattalar
66,6 %	25-39 yoshdagilar



2022- yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo'yicha **12,7 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,2 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **7,1 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, tug'ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo'yicha **31,6 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **66,6 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,8 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo'lgan.

VAFOT ETGANLAR



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi

	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 168	4,9
Nukus sh.	1 310	5,3
tumanlar:		
Amudaryo	722	4,7
Beruniy	721	4,8
Bo'zatov	77	4,7
Qorao'zak	239	5,9
Kegeyli	326	5,9
Qo'ng'irot	544	5,5
Qonliko'l	175	4,4
Mo'ynoq	126	5,1
Nukus	200	5,1
Taxiatosh	235	4,1
Taxtako'pir	153	5,0
To'rtko'l	760	4,6
Xo'jayli	489	5,2
Chimboy	460	5,4
Shumanay	163	3,8
Ellikqal'a	468	3,8

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,6** promille bo'lgan).

Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar

1 306

Ayollar

1 013



56,3 %

43,7 %

Yanvar-iyun

Erkaklar

2 438

Ayollar

1 930



55,8 %

44,2 %

Yanvar-sentabr

Erkaklar

3 979

Ayollar

3 189




55,5 %

44,5 %



O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **56,1 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,6 %** i – o'simtalardan, **10,9 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **6,8 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,3 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,6 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **11,7 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr

**57,0 %**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **15,5 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **27,5 %** ni, 60 va undan katta yoshlarda esa **57,0 %** ni tashkil etgan.

**27,5 %****15,5 %**

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik


	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10 895	7,4
<i>Nukus sh.</i>	1 837	7,4
tumanlar:		
Amudaryo	1 212	7,9
Beruniy	1 173	7,9
Bo'zatov	115	7,0
Qorao'zak	262	6,5
Kegeyli	356	6,4
Qo'ng'irot	946	9,5
Qonliko'l	254	6,5
Mo'ynoq	156	6,3
Nukus	344	8,8
Taxiatosh	391	6,9
Taxtako'pir	167	5,5
To'rtko'l	1 133	6,8
Xo'jayli	715	7,6
Chimboy	576	6,7
Shumanay	248	5,8
Ellikqal'a	1 010	8,1

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar- mart



Yanvar- iyun




Yanvar- sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,9** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,8** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koefitsiyenti 2022- yil yanvar-sentabr, birlik

	nikohdan ajralishlar	koefitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 554	1,1
<i>Nukus sh.</i>	346	1,4
tumanlar:		
Amudaryo	133	0,9
Beruniy	143	1,0
Bo'zatov	14	0,9
Qorao'zak	39	1,0
Kegeyli	45	0,8
Qo'ng'irot	121	1,2
Qonliko'l	49	1,2
Mo'ynoq	26	1,0
Nukus	49	1,3
Taxiatosh	62	1,1
Taxtako'pir	42	1,4
To'rtko'l	122	0,7
Xo'jayli	113	1,2
Chimboy	99	1,2
Shumanay	33	0,8
Ellikqal'a	118	1,0

2022- yil yanvar-sentabr oylarida **1,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koefitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **0,8** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlarning taasimlanishi

Yanvar- mart



58,3 %



41,7 %

Yanvar- iyun



57,7 %



42,3 %

Yanvar- sentabr



58,8 %




41,2 %



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022- yil yanvar-sentabr oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **18,1** % i farzandsiz, **49,5** % i bitta farzand bilan va **32,4** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlarning 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **1 554** kishini, har 1000 aholiga nikohdanajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2022-yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 6 027 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 7 602 kishini, migratsiya saldosi minus 1 575 kishini tashkil etdi.(2021- yil yanvar-sentabr oylarida minus 6 559 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(kishi)

	2021 - yil yanvar-sentabr			2022- yil yanvar-sentabr		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib ketganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 610	16 169	-6 559	6 027	7 602	-1 575
Nukussh.	3 223	3 151	72	2 210	1 553	657
tumanlar:						
Amudaryo	257	841	-584	177	449	-272
Beruniy	235	599	-364	174	300	-126
Bo‘zatov	1 209	1 348	-139	66	195	-129
Qorao‘zak	133	561	-428	173	276	-103
Kegeyli	408	1 074	-666	229	503	-274
Qo‘ng‘irot	343	1 184	-841	320	436	-116
Qonliko‘l	278	479	-201	207	335	-128
Mo‘ynoq	331	253	78	153	145	8
Nukus	582	813	-231	437	444	-7
Taxiatosh	493	775	-282	274	367	-93
Taxtako‘pir	156	453	-297	93	237	-144
To‘rtko‘l	421	600	-179	287	410	-123
Xo‘jayli	678	1 482	-804	454	594	-140
Chimboy	360	1 401	-1 041	306	684	-378
Shumanay	196	501	-305	226	308	-82
Ellikqal'a	307	654	-347	241	366	-125

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko'chib kelganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 027	4,1
Nukus sh.	2 210	8,9
tumanlar:		
Amudaryo	177	1,1
Beruniy	174	1,2
Bo'zatov	66	4,0
Qorao'zak	173	4,3
Kegeyli	229	4,1
Qo'ng'iroq	320	3,2
Qonliko'l	207	5,3
Mo'ynoq	153	6,2
Nukus	437	11,2
Taxiatosh	274	4,8
Taxtako'pir	93	3,1
To'rtko'l	287	1,7
Xo'jayli	454	4,8
Chimboy	306	3,6
Shumanay	226	5,3
Ellikqal'a	241	1,9

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,2** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,6** promille tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,1** promille kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,7** promille bo'lgan).


JAMI KO'CHIB KETGANLAR




Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko'chib ketganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 602	5,2
<i>Nukus sh.</i>	1 553	6,3
tumanlar:		
Amudaryo	449	2,9
Beruniy	300	2,0
Bo'zatov	195	11,9
Qorao'zak	276	6,9
Kegeyli	503	9,1
Qo'ng'iroq	436	4,4
Qonliko'l	335	8,5
Mo'ynoq	145	5,8
Nukus	444	11,4
Taxiatosh	367	6,5
Taxtako'pir	237	7,8
To'rtko'l	410	2,5
Xo'jayli	594	6,3
Chimboy	684	8,0
Shumanay	308	7,2
Ellikqal'a	366	3,0

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,3** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,1** promille bo'lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlarning davlatlar bo'yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr



Qoraqalpog'iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 81 kishi, Rossiya Federatsiyasidan 7 kishi, Tojikiston Respublikasidan 2 kishi, Turkmeniston Respublikasidan 6 kishi va boshqa mamlakatlardan 5 kishi kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlarning davlatlar bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr





Qoraqalpog'iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasiga 957 kishi, Rossiya Federatsiyasiga 6 kishi, Qirg'iziston Respublikasiga 4 kishi va Turkmaniston Respublikasiga 6 kishi ketgan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar
va ko'chib ketganlar soni**

	Jami ko'chib kelganlar (kishi)	shundan: respublikaning boshqaga hududlaridan	xorijiy mamla- katlardan	Jami ko'chib ketganlar (kishi)	shundan: respublikaning boshqaga hududlariga	xorijiy mamla- katlarga
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 027	5 926	101	7 602	6 629	973
Nukus sh.	2 210	2 188	22	1 553	1 351	202
tumanlar:						
Amudaryo	177	177	0	449	424	25
Beruniy	174	173	1	300	269	31
Bo'zatov	66	66	0	195	160	35
Qorao'zak	173	172	1	276	263	13
Kegeyli	229	228	1	503	464	39
Qo'ng'irot	320	291	29	436	340	96
Qonliko'l	207	204	3	335	255	80
Mo'ynoq	153	150	3	145	119	26
Nukus	437	428	9	444	410	34
Taxiatosh	274	265	9	367	294	73
Taxtako'pir	93	89	4	237	186	51
To'rtko'l	287	275	12	410	397	13
Xo'jayli	454	450	4	594	471	123
Chimboy	306	304	2	684	609	75
Shumanay	226	225	1	308	272	36
Ellikqal'a	241	241	0	366	345	21



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlар fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan



hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rta sidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 61 222-76-57